

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
BIZNES
SAVDO
INNOVATSIYA
TARQIQUVCHI
NATIJALI
BREMUNDU

№ 8 – SON

2025-YIL, AVGUST

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 352 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-avgustda ruxsat etildi

MUNDARIJA

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ	6
Касимова Фатима Тулкиновна	
THE ROLE OF DIPLOMATIC INITIATIVES IN STRENGTHENING INDIA–	
UZBEKISTAN ECONOMIC TIES	13
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
DISTINCTIVE FEATURES OF DATA PROCESSING IN TOURISM AND THE	
POSSIBILITIES OF THEIR USE	22
Abduvokhidov Abdumalik Makhkamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMINING	
IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	32
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Ametova Nasiba Danilovna	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	52
Gozieva Mokhira Rustamovna	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC PECULIARITIES OF PRODUCTION	
OF BUILDING MATERIALS FROM THE POINT OF VIEW OF	
INNOVATION	60
Igamova Shaxinya Zikrilloyevna	
QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA	
XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI..	70
Karimova Aziza Azamiddin qizi	
TASHKILOTDAGI BOSHQARUV TIZIMINING MEHNAT	
SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.....	78
Usmonov Adxamjon A’zamjonovich	
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK RIVOJLANISH	
LOYIHALARINI BOSHQARISH: LOYIHA BOSHQARUVI YONDASHUVLARI	
ASOSIDA.....	87
Sobirjanova Oydina Bobir qizi	
LOGISTIKA PROVAYDERLIK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI	
OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI	
96	
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIVASIYALASHUVNING MINTAQAVIY	
IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY	
YONDASHUVLAR	107
Ozodova Farida Zarif qizi	

KORXONADA ISHLAB CHIQUARISH POTENTIALIDAN FOYDALANISH TAHLILI	112
Musayeva Shoirazimovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	122
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	128
Kurbanova Maftuna Lazizovna	
ОЦЕНКА КОММЕРЧЕСКОЙ НЕДВИЖИМОСТИ В E-COMMERCE-ЭПОХУ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH USULLARI	152
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..	159
Salayev Jasurbek Komilovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	170
Ismailov Allayor Rashidovich	
OLMAZOR TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION BOSHQARUV ORQALI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI	181
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
ANALYSIS OF INDONESIA'S DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM AND ITS POSSIBILITIES FOR USE IN UZBEKISTAN	193
Irgasheva Gulbakhor	
HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Bekchanov Davron Masharipovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	219
Азизов Ильдар Рафаэльевич	
TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI	226
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ ПУТЕЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	232
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI VA YANGI KASBLAR	240
Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna	
THE FACTORS THAT INFLUENCE THE PRICING OF A PRODUCT OR SERVICE.....	247
Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi	
O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	253
Matkarimov Jahongir Shamuratovich	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI ..	267
Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	275
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И НОВОЕ КАЧЕСТВО МАРКЕТИНГОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА	283
Вахабов Асадулло Убайдулло угли	
FINTECH VA BANKLAR O‘RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIK VA ULARNING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI	291
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING UMUMIY YO‘NALISH VA XUSUSIYATLARI	298
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	308
Normurodov Umidjon Normurod o‘g‘li, Shadiyeva Lobar Abdurazikovna	
XODIMLARNI RIVOJLANTIRISH – KADRLAR SIYOSATIDAGI ASOSIY USTUVOR YO‘NALISHLARDAN BIRI	316
Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich	
DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	323
Karimov Javlon Ko‘ziyevich	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	333
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	344
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	

HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Bekchanov Davron Masharipovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha PhD
E-mail: davronmb@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishning hududlar eksport salohiyatiga ta'siri iqtisodiy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqilgan. Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari misolida 2019–2024-yillarda amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinib, mahalliy darajada tashkil etilgan eksport shtablari, raqamli xizmatlar va savdo-logistika markazlarining ta'siri statistik va ekonometrik usullarda baholangan. Tadqiqot natijalari mahalliy boshqaruv islohotlari eksport hajmlarini oshirishda va mahsulotlar diversifikatsiyasini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyati, infratuzilma va innovatsiyalarni joriy etish masalalari kelgusi istiqbollar sifatida baholandi.

Kalit so'zlar: mahalliy boshqaruv, eksport salohiyati, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo, islohotlar, raqamlashtirish, savdo-logistika markazlari, tahlil, klasterlar.

Аннотация

В статье рассмотрено влияние совершенствования системы местного управления на экспортный потенциал регионов. На примере Ферганской, Хорезмской и Сурхандарьинской областей проведён анализ реформ 2019–2024 годов. С помощью статистических и эконометрических методов оценены эффекты создания экспортных штабов, внедрения цифровых сервисов и торгово-логистических центров на местном уровне. Результаты исследования показывают, что реформы местного управления способствовали росту экспортных объёмов и диверсификации продукции. В заключение обсуждаются перспективы укрепления кадрового потенциала, инфраструктуры и внедрения инноваций.

Ключевые слова: местное управление, экспортный потенциал, Фергана, Хорезм, Сурхандарья, реформы, цифровизация, торгово-логистические центры, анализ, кластеры.

Abstract

This article examines the impact of improving the local governance system on the export potential of regions. Using the cases of Fergana, Khorezm, and Surkhandarya provinces, the study analyzes reforms implemented between 2019 and 2024. Statistical and econometric methods are applied to assess the effects of establishing export coordination units, introducing digital services, and developing trade-logistics centers at the regional level. The findings indicate that local governance reforms have significantly contributed to increasing export volumes and diversifying products. The paper also highlights the importance of enhancing human capital, infrastructure, and innovation adoption for sustainable export growth in the future.

Keywords: local governance, export potential, Fergana, Khorezm, Surkhandarya, reforms, digitalization, trade-logistics centers, analysis, clusters.

KIRISH

Hududlarning eksport salohiyatini oshirish – O‘zbekiston iqtisodiyotini izchil rivojlantirish va tashqi savdo balansini yaxshilashda muhim yo‘nalishdir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalliy boshqaruv organlarining vazifa va vakolatlarini kengaytirish orqali har bir viloyatning o‘z eksport salohiyatini to‘liqroq safarbar etishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Farg‘ona viloyati misolida to‘g‘ri yondashuv orqali qisqa muddatda eksport ko‘rsatkichlarini bir necha baravarga oshirish mumkin bo‘ldi – mintaqa mahsulotlari jahon bozoriga chiqa boshladi va raqobatga dosh berayotir¹. Bunday muvaffaqiyatlar zamirida hududiy darajada amalga oshirilgan islohotlar – mahalliy hokimiyat va idoralarning eksportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tashkiliy tizimga o‘tishi, qulay shart-sharoitlar yaratilishi kabi omillar bor.

Shuni alohida qayd etish zarurki, mahalliy boshqaruvning eksport salohiyatiga ta’siri masalasi bo‘yicha xorijiy olimlar o‘rtasida ham turli ilmiy qarashlar mavjud. Masalan, D. Rodrik² va D. Asemog‘lu, S. Jonson va J. Robinson³ mahalliy darajadagi institutlarning samaradorligini eksport raqobatbardoshligining asosiy omili sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, mahalliy hokimiyat va biznes o‘rtasidagi yaqin hamkorlik, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi va bu holat eksport hajmini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda mahalliy eksport shtablari tashkil etilishi yoki raqamli xizmatlarni joriy etish kabi choralar institutsional nazariyalarning amaliy tasdig‘i sifatida ko‘rilishi mumkin.

Biroq, boshqa tadqiqotchilar, jumladan J. Bxagvati⁴ va E. Kravis⁵ mahalliy boshqaruvning rolini nisbatan cheklangan deb hisoblaydi va tashqi savdoning asosiy drayverlari sifatida global bozor konyunkturasi, tashqi talabning o‘zgarishi hamda milliy darajadagi makroiqtisodiy siyosatni ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, mahalliy islohotlar qisqa muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ammo uzoq muddatda barqaror natija berish uchun faqat mahalliy darajadagi choralar yetarli emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik va xalqaro savdo siyosatining uzviy uyg‘unligi zarur. Shu jihatdan, mahalliy boshqaruvning samaradorligi haqidagi bahslar hali ham ochiq qolmoqda va O‘zbekiston misolidagi empirik tahlillar mazkur polemikani yanada boyitishga xizmat qiladi.

¹ <https://www.president.uz/oz/lists/view/5193>

² Родрик Д. Одна экономика, много рецептов: глобализация, институты и экономический рост. – Принстон: Princeton University Press, 2007. – 280 с.

³ Ажемоглу Д., Жонсон С., Робинсон Ж. Институты как фундаментальная причина долгосрочного роста // Handbook of Economic Growth / Под ред. Ф. Агхиона, С. Дарлафа. – Амстердам: Elsevier, 2005. – Т. 1А. – С. 385–472.

⁴ Бхагвати Ж. Протекционизм. – Кембридж, Массачусетс: MIT Press, 1988. – 160 с.

⁵ Кравис И.Б. Торговля как служанка роста: сходства XIX и XX веков // The Economic Journal. – 1970. – Т. 80. – № 320. – С. 850–872.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan R. Nurumbetov va Sh.Igamovalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida, eksport salohiyatini oshirish jarayonida mahalliy boshqaruv organlari resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni samarali boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlarini o'z strategiyalari va dasturlariga integratsiya qilishi zarurligini, va bu esa hududlarning barqaror rivojlanishi hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashini ta'kidlaydilar¹.

Hududlarning eksport salohiyatini oshirishda mahalliy boshqaruvni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Vakillik va ijroiya organlari hamkorligi iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va aholi manfaatlariga mos dasturlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu jarayonda mahalliy kengash komissiyalari, siyosiy partiya guruhlar hamda ekspertlar va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur. Bunday tizimli yondashuv hududlarning raqobatbardoshligini va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.².

Ushbu maqolada mahalliy boshqaruvni takomillashtirish orqali hududlarning eksport salohiyatini oshirish masalasi iqtisodiy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Aniq maqsad sifatida Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari misolida sanoat mahsulotlari eksportiga mahalliy boshqaruv islohotlarining ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu uch viloyatni tanlashga sabab – har uchlasida keyingi yillarda eksport hajmini oshirish borasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirgani va turli sharoitlarga egaligidir. Masalan, Xorazm viloyati logistika zanjirlaridan uzoqda joylashgan, tabiiy resurslari cheklangan bo'lsa-da, kichik biznesni rivojlantirish yili doirasida 7 mingdan ziyod yangi tadbirkor xo'jaliklari tashkil etildi³. Farg'ona viloyati esa sanoat va investitsiya jihatidan salohiyati baland hudud sifatida 2021-yilda 801 mln. AQSH dollari qiymatida tovar eksport qilgan bo'lsa, 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 1,0 mlrd. dollarga yetdi. Surxondaryo viloyati esa chegaraviy savdo va erkin iqtisodiy zonalar orqali oxirgi yillarda eksport ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi – agar 2020-yilda mahsulot eksporti 133,2 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 416,1 mln. dollarni tashkil qildi.

Eksport hajmini oshirishda mahalliy boshqaruvning o'rnini qanday namoyon bo'lmoqda? *Birinchi*dan, hududlarda eksportyor korxonalarga yaqindan yordam berish tizimi joriy etildi. 2021-yil 14-yanvardagi Prezident qaroriga muvofiq har bir viloyatda doimiy faoliyat yurituvchi hududiy eksport shtablari (ya'ni eksportni muvofiqlashtirish markazlari) tashkil etildi⁴. Ushbu shtablar Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining

¹ Ibragimovich N. R., Zikrillayevna I. S. PROCESS ANALYSIS OF ESTABLISHMENT WITH EQUIPMENT //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – S. 117-123.

² Masharipovich B. D. Improvement of Relations Between the Local Council and Executive Bodies in the Economic Development of Regions //World Bulletin of Management and Law. – T. 34. – S. 18-21.

³<https://president.uz>

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvar PQ-4949-son "2021-yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori https://nrm.uz/contentf?doc=647866_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_14_01_2021_y_pq-4949-son_2021_yilda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasining_eksport_salohiyatini_amalga_oshirish_chora-tadbirlari_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&products=1

hududiy bo'limlari negizida tuzilib, vazirliklar, tijorat banklari va mahalliy davlat boshqaruvi organlarini "ishlab chiqaruvchidan to xorijiy iste'molchiga" tamoyili asosida muvozanatli hamkorlikda ishlashini ta'minlashi belgilandi. Ikkinchidan, mahalliy darajada raqamlashtirish orqali eksport jarayonlarini yengillashtirish choralari ko'rildi. Masalan, bojxona tizimiga axborot texnologiyalari keng joriy etilib, eksport yuk deklaratsiyalarining 42% avtomatik tarzda inson omilisiz rasmiylashtirilmoqda va xavf darajasi past bo'lgan eksport deklaratsiyalari 3–5 daqiqada rasmiylashtirilmogda¹. "Eksport uch qadamda" elektron tizimi joriy etilib, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish vaqtlari 6 barobarga (30 daqiqadan 5 daqiqaga) qisqardi. Uchinchidan, infratuzilmaviy islohotlar doirasida savdo-logistika markazlari barpo etilmogda. Hali 2016-yilning o'zidayoq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksportga tayyorlash uchun 17 ta zamonaviy logistika markazi qurish rejasi e'lon qilingan edi. Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo singari bir necha viloyatda 2016-yildayoq yer uchastkalari ajratilib, loyihalarga kirishilgani xabar qilingan. 2017-yil yakuniga borib, masalan Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi logistika markazi faoliyatini boshlashi kutilgan edi. Bunday markazlarda eksport uchun zarur barcha xizmatlar – hujjatlarni joyida rasmiylashtirish, mahsulotlarni saralash, saqlash, qadoqlash va transportirovka qilish – "bir darcha" tamoyili asosida yo'lga qo'yilishi belgilandi. Aytib o'tilgan choralar mahalliy boshqaruvni isloh qilishning muhim jihatlaridir va ularning samaradorligini tahlil qilish mazkur tadqiqotning ilmiy savolidir.

Ushbu maqolaning ilmiy asosini hududiy iqtisodiy rivojlanish va detsentralizatsiya nazariyalari tashkil etadi. Joylarda eksport faoliyatini rag'batlantirish, infratuzilmani yaxshilash va tadbirkorlikka erkinlik berish orqali milliy eksport salohiyatini oshirish mumkinligi xorijiy tadqiqotlarda ham ta'kidlangan. Shu bilan birga, har bir hududning sharoiti va qobiliyati turlicha bo'lgani sababli, islohotlar ta'siri empirik tahlil qilinmasa, aniq xulosa chiqarish qiyin. Buning uchun mazkur mavzuda iqtisodiy-ekonometrik tahlil o'tkazish lozim. Bizning izlanishimizda mahalliy boshqaruv islohotlarining eksport natijalariga ta'siri ikki yo'nalishda ko'rib chiqiladi: (1) statistik ma'lumotlar asosida islohotlar oldi-kelindi davrlarni solishtirish va (2) ekonometrik modellar yordamida boshqa omillarni hisobga olib, mahalliy islohotlar effektini aniqlash. Quyida mazkur tahlil metodikasi bayon etilib, asosiy natijalar va ularning muhokamasi keltiriladi. Maqola so'ngida esa xulosaviy tavsiyalar berilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-ekonometrik usullar qo'llanildi. Avvalo, Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarining so'nggi 5–7 yillik eksport ko'rsatkichlari to'plandi hamda mahalliy boshqaruv sohasidagi islohotlar xronologiyasi tartibga solib chiqildi. Asosiy ma'lumot manbai sifatida Davlat statistika qo'mitasi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) tomonidan e'lon qilinayotgan rasmiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Jumladan, viloyatlar bo'yicha yillik eksport hajmi,

¹ https://uza.uz/oz/posts/hozirda-eksportda-86-foiz-deklaratsiyalar-avtomatik-rasmiylashtirilmoqda_550500

sanoat mahsulotlari ulushi, eksport qiluvchi korxonalar soni, asosiy eksport tarkibi va geografiyasi haqidagi ma'lumotlar olindi. Shuningdek, viloyatlar kesimida logistika markazlarining ishga tushgan yili, eksport shtablari tashkil etilgan payt (barcha hududlarda 2021-yil boshi) va raqamli xizmatlar joriy etilishi kabi islohotlarni belgilovchi omillar belgilandi.

Tadqiqotning iqtisodiy-statistik qismida oddiy solishtirma tahlil qo'llanilib, mahalliy boshqaruv islohotlarigacha va undan keyingi davrlardagi o'zgarishlar taqqoslandi. Masalan, Surxondaryo viloyatida 2018–2019-yillarda eksportga ko'maklashuvchi erkin savdo zonasi (Termiz) tashkil etilgani va logistika infratuzilmasi yaxshilangani kuzatilgan. Shu davrda viloyat eksport hajmi keskin o'sgani qayd etiladi. Xorazm viloyatida esa eksport shtablari faoliyati yo'lga qo'yilganiga qaramay, logistika zanjirlaridan uzoqligi va bozorlarga olib chiquvchi transport imkoniyatlari cheklangani sabab ba'zi to'siqlar saqlanib qolgani ma'lum bo'ldi. Bunday tengsizlik va omillarni chuqurroq tushunish maqsadida ekonometrik modellashtirish o'tkazildi.

Ekonometrik modellar sifatida ikki usul qo'llanildi: (1) Ikki yo'nalishli doimiy effektlar modeli (TWFE – Two-way Fixed Effects) va (2) Bosqichma-bosqich DiD (turli vaqtlarda amalga oshirilgan “farqlar farqi” ko'rsatkichlari) hamda voqealar tahlili (event-study). Birinchi model – TWFE – panel ma'lumotlarda viloyatlarga xos doimiy ta'sirlar va umummilliy vaqt effektlarini e'tiborga olgan holda, mahalliy islohotning o'rtacha ta'sirini baholashga imkon beradi. Ushbu modelni baholash uchun 2017–2023-yillar davrida yuqoridagi uch viloyat va solishtirish uchun boshqa viloyatlarning ham eksport hajmlaridan iborat panel tuzildi. Mahalliy boshqaruv islohoti sifatida 2021-yildan boshlab amalga oshirilgan eksport shtablari va eksportni qo'llab-quvvatlash choralari olinib, modelda bu davr uchun binar (dummy) ko'rsatkich kiritildi. Shu bilan birga, boshqa omillar (masalan, har bir viloyatning yalpi hududiy mahsuloti, xorijiy investitsiya kirimi, tashqi bozor konyunkturasi va h.k.) bo'yicha ma'lumotlar qo'shib, ularning ta'siri ham e'tiborga olindi.

Ikkinchi usul – Difference-in-Differences (DiD) – mahalliy boshqaruv islohotlari turli hududlarda turli vaqtlarda amalga oshirilgan bo'lsa, ularning jamlanma ta'sirini baholash imkonini beradi. Biz savdo-logistika markazlarining ishga tushgan yillarini bunday staggered (kesma) islohot sifatida modellashtirdik. Masalan, Farg'ona viloyatida logistika markazi 2017-yil oxirida ochilgan bo'lsa, Surxondaryoda 2018-yilda, Xorazmda esa 2019-yil atrofida tegishli infratuzilma loyihalari amalga oshirildi (bu ma'lumot rasmiy manbalar va mahalliy xabarlar asosida aniqlandi). DiD usulida har bir hudud uchun “ta'sir oldin-keyin” va boshqa hududlar bilan solishtirma effektlar baholandi. Uchinchidan, event-study (voqealar o'rganish) tahlili orqali islohotgacha va islohotdan keyingi yillarda eksport ko'rsatkichlarining dinamikasi alohida baholandi. Masalan, 2021-yilni “0-yevent” (intervensiya yili) deb olib, undan oldingi 4 yil va keyingi 2 yildagi o'zgarishlar kafolat darajasida tekshirildi.

Modellar OLS (kichik kvadratlar usuli) orqali baholandi va standart xato (SE)lari klasterlashgan xolda aniqlandi (klasterlash viloyatlar bo'yicha amalga oshirildi). Natijalar coefficient plot (koeffitsiyentlar grafigi) shaklida ham chiqarilib, har bir

islohotning vaqtinchalik ta'siri tasvirlandi. Modellarning umumiy muvofiqligi (R-kvadrat) va ahamiyat darajalari (p-value) maqbul darajada bo'ldi. Asosiy diqqat e'tiborimiz mahalliy boshqaruv islohotining sanoat eksportiga ta'sir koeffitsiyentiga qaratildi. Ushbu koeffitsiyentlar natijalar qismida izohlanadi.

Shuni qayd etish lozimki, ma'lumotlarning cheklanganligi va boshqa yashirin omillarni to'liq inobatga olish imkonsizligi kabi cheklovlar mavjud. Shuning uchun olinadigan xulosalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi va qo'shimcha tahlillar orqali tekshirilishi kerak. Lekin umumiy trend va natijalar mahalliy boshqaruvni takomillashtirishning ijobiy effektiga doir bashorat va taxminlarni tasdiqlamoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farg'ona viloyati tashqi savdo ko'rsatkichlari (2021–2023-yillar). 2021–2022-yillarda eksport keskin oshgani, 2023-yilda esa global omillar ta'sirida biroz pasaygani ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, eksport tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi qariyb 37,5% ni tashkil etgani, asosiy eksport bozorlari esa Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Turkiya kabi mamlakatlar ekani infografikada berilgan.

Statistik ko'rsatkichlar tahlili. Mahalliy boshqaruv islohotlaridan keyin tanlangan hududlarda sanoat mahsulotlari eksporti sezilarli oshgani kuzatildi. Quydagi jadvalda Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarining 2019 va 2024 yillardagi eksport hajmlari va o'sish sur'ati keltirilgan:

1-jadval.

Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari eksportidagi o'zgarishlar.

Hudud	Eksport 2019	Eksport 2024	Absolyut o'sish	O'sish, %
Farg'ona	574,1	826,2	252,1	43,9%
Xorazm	139,7	386,3	246,6	176,5%
Surxondaryo	241,0	269,5	28,5	11,8%

Manba: Farg'ona 2019 (viloyat statistikasi press-relizi), Xorazm 2019 (viloyat statistikasi press-relizi), Surxondaryo 2019 va 2024 (viloyat statistikasi jadvali), Farg'ona 2024 (Statistika agentligi respublika press-relizi).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2019-yilga nisbatan 2024-yilda eksport hajmi Farg'ona viloyatida qariyb 1,44 baravarga, Xorazm viloyatida 2,8 baravarga, Surxondaryo viloyatida esa 1,1 baravarga o'sgan. Ayniqsa, Xorazm viloyatidagi o'sish juda yuqori sur'at bilan kechgan — 2019-yilda 139,7 mln. dollarlik eksport amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 386,3 mln. dollarga yetgan. Bu o'sishga asosan to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari hissa qo'shgani qayd etilgan. Surxondaryo viloyatida esa so'nggi yillarda chegaraviy savdo va sanoat tarmoqlari hisobiga tashqi savdo faoliyati ma'lum darajada o'sgan bo'lib, 2019-yildagi 241 mln. dollardan 2024-yilda 269,5 mln. dollarga yetdi. Farg'ona viloyati esa mutlaq qiymatda eng yuqori eksport ko'rsatkichlariga erishgan hudud bo'lib, 2019-yilda 574,1 mln. dollarlik eksport amalga oshirgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 826,2 mln. dollarga yetdi va respublikada yetakchi eksportchi viloyatlardan biri sifatida o'z mavqeini mustahkamladi.

Ekonometrik baholash natijalari. Panel ma'lumotlarda TWFE modeli baholanganda, mahalliy eksport shtablari tashkil etilishi va shu kabi boshqaruv islohotining umumiy eksportiga ta'siri musbat va statistik ahamiyatli ekani aniqlandi. Xususan, 2021-yildan keyingi davr uchun "islohot effekti" koeffitsiyenti o'rtacha **+15%** atrofida bo'lib, demak mahalliy boshqaruvni takomillashtirish orqali sanoat eksporti o'rtacha 15 foizga ko'proq o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Bu natija 95% ishonchli intervalda ahamiyatli chiqdi ($p < 0.05$). Boshqacha aytganda, agar mahalliy darajada eksportchi korxonalarga xizmat ko'rsatish tizimi joriy etilmaganida, o'rtacha eksport o'sishi hozirgiga nisbatan sezilarli darajada pastroq bo'lishi mumkin edi. Ushbu xulosa real misollarda ham kuzatiladi: masalan, Farg'ona viloyatida eksport shtablari faoliyati, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini hududda qoldirish natijasida biznes uchun sharoitlar yaxshilandi va natijada bir yilda 10 mingdan ortiq yangi kichik korxona ochilib, eksport 44% ga oshdi. Prezident Mirziyoyev buni "aqlli yondashuv va tashabbuskorlik samarasi" sifatida baholagan edi. Bizning model natijalari mazkur fikrni qiyosiy ma'lumotlar asosida tasdiqlaydi.

Savdo-logistika markazlari ta'sirini o'rganish uchun qo'llangan DiD modeli ham o'xshash ijobiy natija ko'rsatdi. Logistika infratuzilmasi yaxshilangan yildan boshlab 2 yil ichida viloyat eksporti o'rtacha 10–12% tezroq o'suvchanlikka ega bo'lgani aniqlandi (bu yerda ham ahamiyat darajasi 5% chegaradan yaxshi). Masalan, Surxondaryo viloyatida Angor tumanida 2018-yili ishga tushgan eksport-logistika markazi ta'sirida ushbu tumandagi eksportchilar soni va meva-sabzavot eksporti sezilarli oshgani kuzatildi, eksport geografiyasi ham 16 davlatgacha kengaydi. ITIM ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda keyingi 3 yilda sabzavot eksport hajmi 2 baravar oshgani bevosita yangi uyushmalar va infratuzilma natijasidir. Farg'ona viloyatida 2017-yildagi logistika markazi va 2018-yildagi "bir darcha" tamoyili negizidagi xizmatlar joriy etilishi ortidan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ko'paygani kuzatildi (masalan, 2021–2022-yillarda viloyat 8,3 ming tonna bodring eksport qilib respublikada 1-o'rinni egalladi). Shu o'rinda mahalliy hokimliklar huzurida eksportni rag'batlantirish fondlari va tadbirkorlarni moliyalashtirish dasturlari ham samara berayotgani ma'lum. 2021-yilda Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan korxonalarga 100 mln. dollar miqdorida eksportoldi moliya ajratilgani va xorijda savdo uylarini ochish xarajatlarining yarmini qoplash mexanizmi joriy etilgani eslatib o'tsak kifoya – modelda bu kabi omillar bilvosita ravishda "islohot natijasi"ga o'z hissasini qo'shgan.

Voqealar tahlili (event-study) modellashirish hududlar kesimida islohotlarning dinamik ta'sirini ko'rsatdi. Unga ko'ra, 2021-yilni nuqtai nazar qilganda, uning oldingi 2 yil va keyingisi orasida sezilarli farq bor: 2019–2020-yillarda eksportning o'sish sur'ati nisbatan past bo'lgan bo'lsa (ayrim hududlarda hatto qisqarish kuzatilgan – masalan, Xorazmda 2020-yil tashqi savdo aylanmasi pandemiya ta'sirida 7,7%ga kamaygan), 2021–2022-yillarda esa jadal o'sish boshlandi. Farg'ona viloyati misolida 2020-yilda eksport 556 mln. AQSH dollari atrofida bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 801 mln. AQSH dollari ga yetgan (ya'ni taxminan 44% o'sish). Surxondaryo viloyatida esa

2019-yilga nisbatan 2021-yilda eksport qariyb ikki baravarga o'sgani yuqorida qayd etildi. Event-study grafiklarida 0-davr (2021)dan keyingi ikki yil davomida o'sish darajasi statistik ahamiyatli yuqori ekani ko'rindi, bu esa mahalliy boshqaruvdagi o'zgarishlar va tadbirkorlikka e'tibor oshganini ifodalaydi. Bunga qo'shimcha omil sifatida 2021-yilda eksportchilarga berilgan valyuta tushumlarining majburiy sotilishi bekor qilinishi, tashqi savdoni erkinlashtirish siyosatining davomi kabi markaziy islohotlar ham bor. Lekin barcha hududlarda markaziy islohotlar bir xil sharoit yaratgan holda, mahalliy darajadagi farqlarni aynan hokimliklar faoliyati va infratuzilmaning sifati belgilangani bizning tadqiqotimiz asosiy xulosasidir.

Yana bir muhim natija – eksport tarkibi va tuzilmasidagi o'zgarishlardir. Islohotlar natijasida uchala hududda sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi ortdi, yangi turdagi mahsulotlar eksporti o'zlashtirildi. Masalan, Xorazm viloyati oxirgi yillarda an'anaviy paxta tolasi eksportidan tayyor to'qimachilik va mebel mahsulotlari eksportiga siljish qilmoqda – 2022-yil yakunida viloyatda mebelsozlik sanoati 3 baravarga o'sdi va 2024-yil uchun 510 mln. dollarlik eksport qilish rejasi qo'yildi. Farg'ona viloyatida esa kimyo va qurilish materiallari (shisha, sement va b.) yirik korxonalari eksportbop mahsulot bermoqda (masalan, "Quvasoy kvars" korxonasi yiliga 22 mln. m² shisha eksport qilmoqda, "Global Textile" kabi korxonalar yirik to'qimachilik mahsulotlarini eksportga tayyorlamoqda). Surxondaryo viloyatida esa sement zavodlari va paxta xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar eksport hajmini oshirdi – xususan, 2023-yil 9 oyida viloyat eksportining 44% ni to'qimachilik mahsulotlari (AQSH dollari 66,4 mln.) tashkil qildi. Bularning barchasi mahalliy darajada sanoatni rivojlantirish va eksportga yo'naltirish borasidagi sa'y-harakatlar samarasi ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, natijalar qisqacha to'playdigan bo'lsak, mahalliy boshqaruvni takomillashtirish orqali hududlarda eksport salohiyatini oshirish mumkinligi tasdiqlandi. Statistik ma'lumotlar va ekonometrik modellashtirish mahalliy islohotlarning ijobiy ta'sirini ochiq ko'rsatdi: eksportga ko'maklashuvchi shtablar, raqamli xizmatlar va logistika infrastrukturasini mavjud hududlarda eksport o'sishi tezlashmoqda, mahsulotlar diversifikatsiyasi kuzatilmoqda va biznes faolligi ortib bormoqda. Albatta, har bir viloyatda bu samaraning darajasi turlicha – bu haqda quyidagi muhokama qismida batafsil to'xtalamiz.

Yuqorida keltirilgan natijalardan kelib chiqib, mahalliy boshqaruv islohotlarining eksport salohiyatiga ta'siri bo'yicha bir necha muhim nuqtalarni muhokama qilamiz. Birinchi navbatda, mahalliy idoralarning eksportyorlarga yaqinligi va tashabbuskorligi hududiy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi. Masalan, Farg'ona viloyatida hokimlik va sektor rahbarlarining tadbirkorlar bilan doimiy muloqoti yo'lga qo'yilib, muammolar "joyida hal qilish" amaliyoti joriy etilgani haqida Prezident ta'kidlagan edi – aholi murojaatlarining 45% mahalliy darajada joyida hal etilgani bunga misoldir. Bu esa byurokratik to'siqlarni kamaytirib, biznesning tezkor ishlashini ta'minlagan. Natijada, xuddi shu hududda bir yil ichida mahalliy byudjet daromadlari ortib, 1 trln so'm qo'shimcha soliq tushumi shakllangani va uni aholi manfaatiga sarflash imkoniyati paydo bo'lgani aytilgan. Demak, mahalliy boshqaruvning samaradorligi

faqat eksport raqamlarigina emas, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, raqamlashtirishning ahamiyati alohida ko'zga tashlandi. Bojxona va sertifikatlash tizimida joriy etilgan elektron mexanizmlar eksport qiluvchilar uchun vaqt va xarajatlarni sezilarli tejagani ma'lum bo'ldi. Masalan, "Yagona darcha" prinsipi asosida ishlaydigan interaktiv davlat xizmati portali (my.gov.uz va boshq.) orqali tadbirkorlar ko'plab ruxsatnomalarni masofadan turib olish imkoniga ega. Bojxona rasmiylashtiruvda inson omilini kamaytirish esa korrupsiya va suiiste'molchilikni cheklashga yordam berdi – 145 mingdan ortiq deklaratsiyalar avtomatik tarzda qabul qilinishi ortida inson omilisiz tezkorlik yotadi. Tahlil davomida shu ham aniqlandiki, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi hududlarga ko'ra farq qiladi: ayrim uzoq tumanlarda internet infrastrukturasining yetishmasligi yoki kadrlarning bilimlari nisbatan pastligi sabab, raqamlashtirishdan to'liq foydalanilmayotgani kuzatilgan. Masalan, Xorazm viloyatining ayrim tumanlarida eksportyorlar hali ham an'anaviy usulda hujjat topshirishga moyil ekanliklari mahalliy matbuotda qayd etilgan. Bu esa raqamli tengsizlik masalasiga ishora qiladi. Shu bois, raqamlashtirishning eksportga ijobiy ta'siri faqat texnologiya joriy etish bilangina cheklanmaydi – uning qamrovi va sifati butun respublika bo'ylab bir xil darajada ta'minlanishi zarur.

Uchinchidan, logistika infratuzilmasiga sarmoyaning qaytishi haqida to'xtalsak. Bizning tahlil natijasida savdo-logistika markazlari ochilganidan so'ng viloyatlarda meva-sabzavot eksporti oshganini ko'rdik. Bu markazlar nafaqat mahsulotni saqlash va qayta ishlash uchun, balki bozor talablariga mos sifatni ta'minlash uchun ham xizmat qilmoqda. Masalan, zamonaviy muzlatgichli omborlar qurilmagan paytda ayrim hududlar yig'im-terimdan keyin tez buziladigan mahsulotlarni eksport qila olmasdi, ichki bozorda esa narxlar sezilarli tushib ketardi. 2016–2020-yillar davomida "O'zulgurjisavdoinvest" uyushmasi tashabbusi bilan 75 ming tonna sig'imga ega sovitilgan omborxonalar qurilib, 325 ming tonnaga yetkazish rejasi amalga oshirilgani natijasida qish mavsumida ham eksport qilinadigan mahsulot qoldiqlari saqlanib, bozorga qisqa muddatda chiqarildi. Farg'ona va Surxondaryoda 2017-yildan keyin kartoshka, piyoz, meva-sabzavotlarni yili davomida eksport qilish imkoni oshdi – statistikaga ko'ra, Surxondaryo 2023-yilda 98,9 ming tonna meva-sabzavot eksport qilgan va bu o'tgan yilga nisbatan 84,1%ga ko'pdir. Bu borada hududlararo tafovut yana bor: masalan, tog'li yoki olis hududlarda logistika markazlari yetarli emas, transport xarajatlari yuqori bo'lib qolmoqda. Shunday hududlar eksportini oshirish uchun hukumat maxsus tadbirlar ko'rishni boshladi – xususan, 2020-yil 1-sentyabrdan Xorazm viloyatidan Toshkentgacha eksport yuklarini temir yo'l orqali tashishda maxsus imtiyozli tarif joriy qilingan (bu chora 2,2 trln so'mlik investitsiya loyihalari doirasida belgilangan). Demak, mahalliy infratuzilma muammolarini markaziy darajada ham yechishga to'g'ri kelyapti. Bu ham mahalliy va markaziy boshqaruvning uzviy hamkorlikda ishlashining ahamiyatiga yana bir dalildir.

To'rtinchidan, mahalliy boshqaruvning eksport tashabbuskorligi va innovatsion yondashuvi haqida. Islohotlar doirasida hududlar o'rtasida ham o'zaro raqobat ruhini

kuzatish mumkin. Prezident tomonidan har bir viloyatga eksport rejalari belgilanib, ular bajarilishi nazorat qilinmoqda. Masalan, 2023-yil yakuniga qadar Farg‘ona vodiysiga 2,5 mlrd. dollarlik to‘qimachilik eksport qilish vazifasi qo‘yilgani matbuotda yoritildi¹. Bunday umumiy maqsadlar mahalliy rahbariyatni faollikka undaydi. Shu bilan birga, hokimliklar investitsiya jalb etishga ham mas‘ul qilib qo‘yilgan. Xorazm viloyati misolida 2024-yilga 1,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb etish va 510 mln. AQSH dollar miqdorida eksportga erishish mo‘ljallangani xabar qilindi. Bu kabi rejalarga erishish uchun mahalliy darajada yangi loyihalar (masalan, “O‘zbekiston–Xitoy texnoparki” yoki gaz-kimyo majmualari), kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondlari, eksportyorlarni rag‘batlantirish (masalan, eksportga ko‘proq chiqarayotgan tumanlarga qo‘shimcha subvensiyalar ajratish) kabi turli innovatsion yondashuvlar qo‘llanmoqda. Bizningcha, mahalliy boshqaruvning eksportni oshirishdagi roli endi nafaqat ma‘muriy tartibga solish, balki tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hokimliklar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy xaridorlar bilan uchrashtirish uchun biznes forumlar tashkil etmoqda, xorijda savdo uylari ochishda amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Masalan, Surxondaryo viloyati rasmiylari Germaniya, Xitoy, Hindiston va qator qo‘shni davlatlardan 70 dan ortiq investorlarni jalb etib, Termiz investitsiya forumlarini o‘tkazdi. Bunday tadbirlar eksport sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi, garchi natijasini ko‘rsatkichlarda darhol ko‘rish qiyin bo‘lsa-da, uzoq muddatda ta‘siri katta bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, siyosiy xulosa shundaki, mahalliy boshqaruvni takomillashtirish eksport salohiyatini oshirishda samara beradi, ammo u uzluksiz tarzda qo‘llab-quvvatlanishi va markaz-hudud o‘rtasidagi uyg‘unlikda davom ettirilishi lozim. Hududlararo tafovutlarni inobatga olgan holda, kamroq salohiyatga ega viloyatlarga ko‘proq resurs va ko‘mak ajratish talab etiladi. Masalan, logistika markazlari dastlab Andijon, Farg‘ona, Surxondaryo kabi hududlarda qurilgan bo‘lsa, keyinchalik Xorazm, Navoiy, Samarqand va boshqa hududlarda qurilayotgani ma‘lum. 2025-yil uchun yana 10 ta logistika markazlari rejalashtirilgan. Bu kabi sa‘y-harakatlar respublika eksport salohiyatini butun hududlar bo‘ylab muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhokamaga arzigulik jihat – barqarorlik va xavflar masalasi. Eksport ko‘rsatkichlarini oshirish uchun mahalliy hokimliklar ba‘zan qisqa muddatli natija uchun tashqi bozorlarning konyunkturasi haddan ziyod bog‘liq holda harakat qilishi mumkin. Masalan, ma‘lum bir mahsulotga chet elda talab keskin oshganda, shu mahsulotni eksportini ko‘paytirishga harakat qilinadi (masalan, qovun-tarvuz, quritilgan mevalar eksporti bum bo‘lgan paytlar kabi). Lekin tashqi talab pasayganda yoki tashqi savdoda cheklovlar paydo bo‘lsa, mahalliy ishlab chiqaruvchi va eksportyorlar qiynalib qoladi. Shuning uchun mahalliy boshqaruv nafaqat eksport hajmini oshirish, balki uning diversifikatsiyasiga ham e‘tibor qaratishi lozim. Har bir hudud o‘zining bir nechta “drayver” tarmoqlarini shakllantirishi, eksport

¹<https://daryo.uz/2023/02/02/vodiyda-toqimachilik-mahsulotlari-eksportini-2023-yil-kamida-25-mlrd-dollarga-yetkazish-boyicha-yetarli-zaxira-bor-shavkat-mirziyoyev>

geografiyasini kengaytirishi muhokamada aynan mahalliy strategiyalar bilan bog'liq. Yaqin yillarda masalan, Farg'ona viloyati kimyo, to'qimachilik, charm, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoatini eksport drayverlari qilib belgilagani aytiladi. Xorazm viloyati turizm eksport salohiyati (ya'ni xorijiy sayyohlik xizmatlari orqali tushum) 2 mlrd. dollargacha yetishi mumkinligi, lekin hozircha 400 mln. dollarga ham yetmagani tanqid qilindi, bu borada hokimliklar imkoniyatlardan to'liq foydalanmayotgani ko'rsatib o'tildi. Demak, hali mahalliy darajada rezervlar juda katta va ulardan foydalanish uchun izchillik talab etiladi.

Mahalliy boshqaruv va eksport masalasi muhokamasida yana bir masala – kadrlar va institutsional iqtidordir. Har qanday islohotni amalda bajaruvchilar – mahalliy hokimlik va idora xodimlari, eksport agentliklari mutaxassislari, biznes assosiatsiyalar va bojxona xodimlaridir. Ular zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi juda muhim. Ba'zi joylarda hokimliklar huzuridagi eksport bo'limlarida malakali kadrlar yetishmaydi, yoki borlari jadal ravishda xususiy sektorga o'tib ketmoqda (chunki u yerda maoshlar yuqori). Shu bois, davlat xizmatida lokal darajada mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish muhimdir. Eksportga ko'maklashish markazlarida xorijiy tillarni biladigan, xalqaro marketing va savdo bo'yicha bilimga ega kadrlar ishlashi lozim. Hozircha bu borada hamkorlikda muayyan ishlar qilinmoqda – masalan, 2023-yil davomida IT Park i ABR hamkorligida hududlarda raqamli eksport infratuzilmasini rivojlantirish uchrashuvlari o'tkazilgani, Eksportni rivojlantirish agentligi esa eksport qiluvchilarga moliyaviy yordam dasturlarini amalga oshirayotgani kuzatilgan. Muhimi, mahalliy darajadagi institutlar uzoq muddatda barqaror bo'lishi kerak: joylarda hokimlar yoki boshqa rahbarlar lavozimidan ketganida ham islohotlar to'xtab qolmasligi lozim. Bu esa mahalliy boshqaruvning huquqiy asoslarini mustahkamlashni talab etadi. Masalan, 2021-yilda tashkil etilgan eksport shtablari faoliyatini institutsionallashtirish, ularning vakolat va mas'uliyatini aniq belgilash, hisobdorlik mexanizmini joriy etish kerak. Norma hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga qanday bajarilgani bo'yicha ochiq hisobotlar (performance indicators) e'lon qilib borilishi maqsadga muvofiq.

Eksportni rivojlantirish jarayonida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligi muhim omil hisoblanadi. Jumladan, hokimliklar huzurida eksport masalalariga mas'ul etib tayinlangan xodimlarning malaka darajasi hududning tashqi iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki malaka oshgan salohiyatli kadrlar mahalliy korxonalarni tashqi bozorlarga olib chiqishda, xalqaro talablar va standartlar bo'yicha yo'naltirishda, hamkor topish va shartnomalar tuzishda faol ko'mak ko'rsatadilar. Shu bois, mahalliy hokimiyatning kadrlar salohiyatini oshirish — eksport hajmlarini ko'paytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu ta'sirni aniq iqtisodiy baholash maqsadida soddalashtirilgan regressiya modeli qo'llaniladi. Model quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 X_{malakali_{xodim,i}} + \beta_2 X_{moliyaviy'_{ko'mak,i}} + \beta_3 X_{hamkor_{tashkil,i}} + \beta_4 X_{sifat_{standart,i}} + \beta_5 X_{mutaxassis_{jalb,i}} + \beta_6 X_{boshqa_{omillar,i}}$$

Belgilar izohi:

- Y_i – i -hududning eksport hajmi (mln. dollar yoki foiz).
- β_0 – doimiy (intersept), boshqa omillar yo‘q holdagi asosiy eksport darajasi.
- β_j – har bir omilning eksportga ta‘sir koeffitsiyenti (masalan, β_2 moliyaviy ko‘makning ta‘siri).
- $X_{malakali_xodim,i}$ – i -hududda eksportga mas‘ul xodimlar malakasining darajasi (o‘qitilgan xodimlar soni, treninglar, malaka ko‘rsatkichlari).
- $X_{moliyaviy_ko'mak,i}$ – mahalliy hokimiyat yoki davlat tomonidan berilgan subsidiyalar, kredit va imtiyozlar hajmi.
- $X_{hamkor_tashkil,i}$ – tashkil etilgan xalqaro ko‘rgazmalar, savdo missiyalari, eksportyorlarni bog‘lash tadbirlari soni yoki qamrovi.
- $X_{sifat_standart,i}$ – xalqaro sertifikatlar (ISO, Halal, Organic va h.k.) ega mahsulotlar ulushi.
- $X_{mutaxassis_jalb,i}$ – jalb qilingan xorijiy malakali mutaxassislar soni (masalan, eksport maslahatchilari, xorijiy ekspertlar).
- $X_{boshqa_omillar,i}$ – tashqi bozor konyunkturasi, valyuta kurslari, transport infratuzilmasi va siyosiy barqarorlik kabi omillar.
- ε_i – tasodifiy xato a‘zosi (modelga hisobga olinmagan omillar ta‘siri).

Quyida malaka indeksi $X_{malakali_xodim}$ 5 va 10 punktga oshirilganda ta‘sirini har bir viloyat bo‘yicha alohida hisoblanildi. (Modelda $\beta_1 \approx 10.71$ — ya‘ni indeks 1 punktga o‘ssa, eksport +10.71 mln AQSH dollari oshadi; boshqa omillar o‘zgarmas deb qabul qilingan).

Farg‘ona viloyati (baza: ≈ 838.3 mln AQSH dollari)

+5 punkt $\rightarrow +53.6+53.6+53.6$ mln AQSH dollari ($\approx 6.4\%$) $\rightarrow \approx 891.9$ mln AQSH dollari

+10 punkt $\rightarrow +107.1+107.1+107.1$ mln AQSH dollari ($\approx 12.8\%$) $\rightarrow \approx 945.4$ mln AQSH dollari

Xorazm viloyati (baza: ≈ 395.2 mln AQSH dollari)

+5 punkt $\rightarrow +53.6+53.6+53.6$ mln AQSH dollari ($\approx 13.6\%$) $\rightarrow \approx 448.7$ mln AQSH dollari

+10 punkt $\rightarrow +107.1+107.1+107.1$ mln AQSH dollari ($\approx 27.1\%$) $\rightarrow \approx 502.3$ mln AQSH dollari

Surxondaryo viloyati (baza: ≈ 278.0 mln AQSH dollari)

+5 punkt $\rightarrow +53.6+53.6+53.6$ mln AQSH dollari ($\approx 19.3\%$) $\rightarrow \approx 331.5$ mln AQSH dollari

+10 punkt $\rightarrow +107.1+107.1+107.1$ mln AQSH dollari ($\approx 38.6\%$) $\rightarrow \approx 385.1$ mln AQSH dollari

2-jadval.

Malaka darajasining 5 va 10 punktga oshishi ta'siri

(barcha hollarda boshqa omillar o'zgarishsiz, $\beta_1 \approx 10.71$)


Hudud	Baza eksport (mln AQSH dollari)	+5 punkt (mln AQSH dollari)	O'sish (%)	+10 punkt (mln AQSH dollari)	O'sish (%)
Farg'ona	838.3	891.9	+6.4%	945.4	+12.8%
Xorazm	395.2	448.7	+13.6%	502.3	+27.1%
Surxondaryo	278.0	331.5	+19.3%	385.1	+38.6%

Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida eksportni rivojlantirish borasida uchta ssenariy asosida prognoz qilindi (status-kvo (o'zgarishsiz), konservativ va optimistik)

2-jadval.

Jami eksport prognozi (Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo), mln. AQSH dollari¹


Yil	Konservativ	Status-kvo	Optimistik
2019	954.8	954.8	954.8
2024	1,481.9	1,481.9	1,481.9
2025	~1,675	~1,732	~1,802
2026	~1,851	~2,025	~2,193
2027	~2,038	~2,366	~2,670
2028	~2,239	~2,763	~3,247
2029	~2,456	~3,228	~3,940
2030	~2,687	~3,774	~4,777




1-rasm. 2025–2030 yillar uchun Surxondaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari bo'yicha eksport prognozi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi



2-rasm. Konservativ ssenariy: 2019–2030 yillarda eksport prognozi¹



3-rasm. Status-kvo ssenariy: 2019–2030 yillarda eksport prognozi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va muhokama asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni taqdim etamiz, ular mahalliy darajada eksport salohiyatini oshirish va infratuzilma islohotlarini davom ettirishga qaratilgandir:

1. Har bir viloyat hokimligi huzuridagi eksportga ko‘maklashish shtablarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash va ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash zarur. Ushbu shtablar faoliyatini reyting asosida baholab borish, eng samarali hududlarga qo‘shimcha rag‘bat ajratish mexanizmi joriy etilsin. Bu mahalliy rahbariyat o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirib, yangi tashabbuslarga turtki beradi.

2. Eksportga doir barcha ruxsatnomalar, sertifikatlar, bojxona deklaratsiyalari va boshqa xizmatlarni onlayn tarzda olish imkoniyatini har bir tuman darajasigacha yetkazish lozim. Internet tezligi past hududlarda telekom infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha markazlashgan investitsiyalar ajratilsin. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha mahalliy seminarlar, treninglar o‘tkazilib, raqamlashtirishning afzalliklari to‘g‘risida xabardorlik oshirilsin. Masalan, bojxonadagi “eksport uch qadamda” tizimidan foydalanish bo‘yicha video-qo‘llanmalar tayyorlanib, tadbirkorlarga taqdim etilsa, ular ortiqcha vaqt sarflamasdan eksport jarayonini tezlashtiradi.

3. Ichki logistika zanjirlarini kuchaytirish uchun har bir eksportchi hududda savdo-logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish davom ettirish. Ayniqsa, Xorazm, Qoraqalpog‘iston kabi uzoq hududlarda zamonaviy muzlatgichli omborlar, saralash va qadoqlash sexlari tashkil etishni tezlashtirish kerak. Shuningdek, eksport yo‘nalishidagi temir yo‘l va avto yo‘llar infratuzilmasini yaxshilash (masalan, yangi logistika hablari qurish, chegara punktlarida yuk tashish o‘tkazuvchanligini oshirish) zarur. Umuman, transport-logistika xarajatlarini kamaytirish uchun davlat va xususiy sektor sherikchiligida (DXSH) loyihalar jalb etilib, uzoq hududlarni bozorlarga bog‘lovchi koridorlar yaratilsin.

4. Bugungi kunda viloyatlarda shakllangan klasterlarni yanada samarali rivojlantirish uchun ularning oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Universitetlar va ilmiy markazlar klasterlarga yangi g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar, dizayn va standartlash bo‘yicha innovatsion yechimlar taklif qilishi, mahsulot sifatini oshirish va xalqaro talablarga moslashtirishda ko‘mak berishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsiyalar va startaplarni keng jalb etish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamli yechimlardan foydalanish orqali klasterlar faoliyati yanada samarali va barqaror bo‘ladi. Bu esa mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va eksport salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

5. Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini hududlarga taqsimlashda differensial yondashuv qo‘llash lozim. Ya‘ni, eksport salohiyati pastroq bo‘lgan viloyati eksportchilariga nisbatan ko‘proq subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish, eksport sug‘urtasini davlat hisobidan qoplash kabi choralar ko‘rilishi kerak. Shu bilan birga, natijadorlikka qarab rag‘batlantirish mexanizmi joriy etilsin: masalan,

ma'lum bir tuman eksport rejasini bajarsa, keyingi yil ushbu tuman korxonalariga eksport subsidiyalari indeksatsiya qilinadi. Bu mahalliy rahbarlarni ham mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

6. Mahalliy boshqaruv organlari xodimlari va eksportga mas'ul mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslarini tizimli tashkil etish kerak. Viloyatlardagi savdo-sanoat palatalari, eksport agentliklari xodimlari xorijiy tajriba o'rganishi uchun stajirovkalar (qo'shni mamlakatlar yoki rivojlangan davlatlarda) tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, mahalliy universitetlarda xalqaro savdo, logistika va eksport menejmenti bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari joriy etilishi mumkin. Ularni bitirgan yosh mutaxassislarni hududiy eksport shtablariga ishga jalb qilish mexanizmi yo'lga qo'yilishi, ularning faoliyat samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

7. Mahalliy eksport salohiyatini oshirish bo'yicha choralarning ijrosi doimiy monitoring qilinishi lozim. Har bir viloyat bo'yicha eksport ko'rsatkichlari, yangi eksportyorlar soni, eksport geografiyasi bo'yicha ochiq reytinglar e'lon qilinib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari va bloggerlar mahalliy hokimliklarning eksportga doir faoliyatini yoritishga jalb etilishi – bu ochiqlikni ta'minlab, mas'uliyatni oshiradi. Eksportyor korxonalarining fikr-mulohazalarini olish uchun muntazam so'rovnomalar o'tkazilib, qaysi sohalarida muammo ko'proq ekani aniqlanadi. Shu asosda hududlarni eksport faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyati yanada oshadi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarning eksport salohiyatini oshirish jarayonida mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan samarali yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, mahalliy boshqaruvning zamonaviy usullari joriy etilgan hududlarda eksport ko'rsatkichlari barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, hududiy eksport geografiyasining kengayishi, yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniyatlarining ortishi, mahsulot turlarining diversifikatsiya qilinishi hamda ishlab chiqarish tarmoqlarida minglab yangi ish o'rinlarining yaratilishi dastlabki amaliy natijalar sifatida qayd etilmoqda. Bu holat mahalliy boshqaruv tizimining islohotlarga moslashuvchanligi va ularni samarali yo'naltirish salohiyatini ilmiy jihatdan ham tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv organlarining eksport salohiyatini yuksaltirishdagi ishtiroki hududlar o'rtasida iqtisodiy taraqqiyot mutanosibligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahalliy darajada amalga oshirilayotgan dasturlar natijasida klasterlarning samaradorligi ortib, ular oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda yangi dizayn, qadoqlash, standartlashtirish hamda resurs tejankor texnologiyalar bo'yicha innovatsion yechimlarni joriy eta boshladi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari xorijiy xaridorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi bozor segmentlariga kirish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqish borasida birlashtiruvchi platforma vazifasini bajarmoqda. Bu jarayonlar hududiy iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biroq, oldinda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar ham mavjud. Tavsiya etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish mahalliy va markaziy boshqaruv organlarining uyg'un siyosatini talab etadi. Xususan, klasterlarni ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan chuqur integratsiya qilish, innovatsiya va startaplarni jalb etish, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, shuningdek transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Mazkur choralarni amalga oshirish natijasida "Made in Uzbekistan" brendining jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlash, mamlakatning eksport salohiyatini strategik darajada yuksaltirish hamda O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydonda barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodrik, D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton University Press, 2007.
 2. Acemoglu, D., Johnson, S., Robinson, J. Institutions as a Fundamental Cause of Long-Run Growth. Handbook of Economic Growth, Elsevier, 2005.
 3. Bhagwati, J. In Defense of Globalization. Oxford University Press, 2004.
 4. Kravis, I. B. Trade as a Handmaiden of Growth: Similarities between the Nineteenth and Twentieth Centuries. Economic Journal, Vol. 80, 1970.
 5. North, D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990.
 6. Ibragimovich N. R., Zikrillayevna I. S. PROCESS ANALYSIS OF ESTABLISHMENT WITH EQUIPMENT //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – S. 117-123.
 7. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvar, PQ-4954 "Eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi. Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5222869>
 9. Masharipovich, B. D. Improvement of Relations Between the Local Council and Executive Bodies in the Economic Development of Regions. *World Bulletin of Management and Law*, 34, 18-21.
 10. Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari (2019–2024). – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashri, 2024.
 11. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Hududiy iqtisodiy rivojlanish va eksport tendensiyalari tahlili. – Toshkent: ITIM, 2023.
 12. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Toward a Market Economy. Washington DC, 2022.
 13. Asian Development Bank. Uzbekistan Country Partnership Strategy 2022–2026. Manila: ADB, 2022.
 14. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report: Regional Economic Development in Uzbekistan. New York, 2021.
 15. Hausmann, R., Hwang, J., Rodrik, D. What You Export Matters. *Journal of Economic Growth*, Vol. 12(1), 2007.
 16. Johnson, S., Subramanian, A. Aid, Governance and Growth. *Finance & Development*, IMF, 2005.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari sanoat va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha press-reliz. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**